


TOSHKENT SHAHRIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO‘YICHA MA‘LUMOT

2021- yil 1- may holatiga ko‘ra
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)




Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiy rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning hududiy markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.

Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxonalar va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.


Korxonalar va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2021- yil 1-may holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarsiz) shakllantirildi.



Mamlakatimizda qulay ish-bilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1-may holatiga ko'ra, ming birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalar soni

(tashkiliy-huquqiy shakllar tasnifi bo'yicha
2021- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda)

4

74 517



Mas'uliyati cheklangan
jamiyatlar

3 465



Oilaviy korxonalar

535



Unitar korxonalar

12 909



Xususiy korxonalar

227



Aksiyadorlik jamiyatlari


417



Boshqa korxonalar

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- may holatiga ko'ra, birlikda)



■ 2020- y. ■ 2021- y.


Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar-aprel oylarida)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(yanvar-aprel oylarida, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)




Sanoat sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(1- may holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **9,7** foizga oshdi




■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar

Oilaviy korxonalar



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



Xususiy korxonalar




Qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1-may holatiga ko'ra, birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **19,4** foizga oshdi




Kichik tadbirkorlik subyektlari




19,5 foizga oshdi



Mikrofimlar




Kichik korxonalar



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




22,1 foizga oshdi



Oilaviy korxonalar




1,5 martaga oshdi




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



O'tgan yilga nisbatan **18,9** foizga oshdi



Xususiy korxonalar




O'tgan yilga nisbatan **1,2** foizga pasaydi




Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(1-may holatiga ko'ra, birlikda)




Kichik tadbirkorlik subyektlari




Mikrofirmalar




Kichik korxonalar




Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




Oilaviy korxonalar



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni




Xususiy korxonalar






Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- may holatiga ko'ra, birlikda)





Ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2021-yilning 1-may holatiga ko'ra 3,6 mingtani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 0,5 mingtaga yoki 16,5 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 3,4 mingtani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 0,5 mingtaga yoki 16,7 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yilning yanvar-aprel oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 188 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 taga yoki 0,6 % ga kamayganligini ko'rish mumkin.


Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining tumanlar kesimidagi soni

(2021- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda)



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni

(2021- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda)




Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2021- yil 1- may holatiga ko'ra 7,6 ming tani tashkil etib, ulardan 7,4 mingtasi yoki 96,6 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 0,9 mingtaga yoki 113,5 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yilning yanvar-aprel oylarida 551 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-aprel oylarida, birlikda)




**Toshkent shahrida MDH davlatlarining kapitali ishtirokida
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**
(2021- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda)

	<i>Jami</i>	<i>shundan:</i>	
		<i>qo'shma korxonona</i>	<i>xorijiy korxonona</i>
Rossiya Federatsiyasi	1 330	704	626
Qozog'iston Respublikasi	716	300	416
Ozarbajon Respublikasi	160	52	108
Ukraina Respublikasi	114	56	58
Qirg'iz Respublikasi	98	38	60
Tojikiston Respublikasi	87	36	51
Turkmaniston Respublikasi	59	23	36
Belarus Respublikasi	61	26	35
Armaniston Respublikasi	25	16	9
Moldova Respublikasi	17	5	12



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(1- may holatiga ko'ra, birlikda)



Tumanlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni

(2021- yil 1-may holatiga ko'ra, birlikda)

14

	Jami	shundan:	
		qo'shma korxonalar	xorijiy korxonalar
Toshkent shahri	7 412	2 989	4 423
<i>tumanlar:</i>			
Uchtepa	240	85	155
Bektemir	166	92	74
Yunusobod	932	397	535
Mirzo Ulug'bek	944	392	552
Mirobod	1 274	403	871
Shayxontohur	501	236	265
Olmazor	396	211	185
Sirg'ali	253	123	130
Yakkasaroy	1 194	433	761
Yashnobod	588	258	330
Yangihayot	93	49	44
Chilonzor	831	310	521

Mirobod – 1 274 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 17,2 %), Yakkasaroy – 1 194 Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining asosiy qismi ta (16,1 %) hamda Yunusobod tumanlarida 932 tani (12,6 %) tashkil etgan. Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining eng kam qismi Uchtepa – 240 ta (3,2 %), Bektemir 166 ta (2,2 %) hamda Yangihayot 93 tani (1,3 %) tashkil etgan.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning tumanlar bo'yicha soni

(2021- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda)

15




2021- yil 1- may holatiga ko'ra ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar tumanlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Yunusobod – (13,0 %), Chilonzor – (12,8 %), Mirzo Ulug'bek – (11,1 %), Olmazor – (10,2 %), Shayxontohur – (9,8 %), Uchtepa – (9,1 %), Yakkasaroy – (8,6 %), Mirobod – (8,4 %), Yashnobod – (8,6 %), Sirg'ali – (4,9 %), Bektemir – (2,3 %) hamda Yangihayot tumanlarida (1,9 %) tashkil etgan.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning tumanlar bo'yicha soni


(2021- yil yanvar-aprel oylarida, birlikda)

2021- yil yanvar-aprel oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar tumanlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Chilonzor – (13,5 %), Yunusobod – (11,2 %), Mirzo Ulug'bek – (11,6 %), Olmazor – (10,0 %), Shayxontohur – (9,4 %), Uchtepa – (8,7 %), Yashnobod – (8,5 %), Mirobod – (8,1 %), Yakkasaroy – (7,7 %), Sirg'ali – (6,0 %), Bektemir – (2,3 %) hamda Yangihayot tumanlarida (2,6 %) tashkil etgan.



Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining tumanlar bo'yicha soni



(2021- yilning yanvar-aprel oylarida, birlikda)



2021- yilning yanvar-aprel oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar tumanlar kesimida taqsimlanganda Yashnobod – (14,4 %), Uchtepa – (11,2 %), Sirg'ali – (11,7 %), Mirzo Ulug'bek – (11,5 %), Shayxontohur – (7,4 %), Chilonzor – (6,9 %), Yunusobod – (9,6 %), Olmazor – (8,5 %), Yakkasaroy – (5,9 %), Yangihayot – (6,9 %), Mirobod – (4,3 %) hamda Bektemir tumanlarida (1,6 %) tashkil etgan.

Tumanlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(2021- yilning yanvar-aprel oylarida, birlikda)



Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275-son qarorining 1-ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.



Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

Toshkent shahar statistika boshqarmasi

Statistik registrlarni yuritish bo'limi

tel.: 71 203-88-31